

“Antiqa kimyo” qo’llanmasi nashr etildi

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti (A.B.Ibragimov, A.X.Ruzmetov) va Urganch davlat universiteti (K.A.Shaxmuxtarova) tomonidan “Antiqa kimyo” qo’llanmasi tayyorlandi va “Akademnashr” nashriyotida nashr etildi.

Aziz Ibragimov 1989-yilda Toshkent shahrida tug’ilgan. 2017-yil kimyo fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), 2019-yil kimyo fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan. Italiyada o’tkazilgan “TWAS-2018” yosh olimlar tanlovi, Kimyoviy qurollarni taqiqlash tashkiloti (Gollandiya, Gaaga)-ga a’zo 195 ta mamlakat o’rtasida o’tkazilgan “Birlashgan dastur – 2018” tanlovida g’olib bo’lgan 30 ishtirokchidan biri. Olimning 100 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari chop etilgan.
Hozirda u O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi-ning Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori ilmiy ishlar bo’yicha o’rinbosari lavozimida faoliyat ko’rsatmoqda.

Abror Ruzmetov 1991-yilda Xorazm viloyati Xonqa tumanida tug’ilgan. Ish faoliyatini Urganch davlat universiteti “Kimyo” kafedrasida boshlagan. 2017–2018-yillarda Xitoy Xalq Respublikasining Xuajong fan va texnologiyalar universitetida malaka oshirgan. 2 ta o’quv qo’llanma va 40 ga yaqin ilmiy maqola va tezislari e’lon qilingan. O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi “Yoshlar Akademiyasi” a’zosi, Prezident stipendianti.
Hozirda O’zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutining tayanch doktoranturasida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Kamila Shaxmuxtarova 2001-yilda Qoraqalpog’iston Respublikasi To’rtko’l tumanida tug’ilgan. Hozirda Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti kimyo yo’nalishi II-bo’sqich talabasi. Maktab davridan fan olimpiadalarida faxrli o’rinlarini egallab kelmoqda. Universitetning iqtidorli talabalaridan biridir.

ANTIQA KIMYO

A.B.Ibragimov, A.X.Ruzmetov, K.A.Shaxmuxtarova

ISBN 978-9943-6501-8-3

9 789943 650183

Qo’llanmada D.I.Mendeleyev davriy sistemasiga kirgan barcha elementlarning kashf qilinish tarixi, elementlar va ularning birikmalarini ishlatilish sohalari bo’yicha ma’lumotlar taqdim qilinadi. Kitobni yaratishda turli ensikolpedik manbalar, xorijiy va milliy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, kimyo darsliklaridan hamda mashhur internet saytlarida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanilgan.

Qo’llanmadan o’quvchi-talabalar, abituriyentlar, pedagoglar va kimyo sohasiga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.